

O'ZBEKISTONDA SAVDO MUNOSABATLARINING IJTIMOIIY HAYOTDAGI O'RNI

Sayfiddin Haydarov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8412557>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iqtisodiy fanlarning o'rni va ahamiyati, O'zbekistonda savdo munosabatlarining ijtimoiy- iqtisodiy hayotdagi o'rni, savdoning ijtimoiy shakllari, tashkiliy iqtisodiy tasnifi haqida atroflicha bayon qilingan.

Kalit so'zlar: xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy tasnif, savdo munosabatlari, moliya bozori.

Kirish:

Davlatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun kerak shart-sharoitlar yaratdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi, shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni paytda davlatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, hozirgi vaqtda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani mamlakatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan takomillashtirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv, shuningdek tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo qilmoqda.

Natijalar:

Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoning ijtimoiy shakllari va tashkiliy – iqtisodiy tasnifi tubdan o'zgardi. Sobiq ittifoq davrida respublikada davlat savdosi, kooperativ savdo va kolxoz bozori mavjud bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda moliya munosabatlari o'zgarishi, ditsentralizatsiya jarayoni amalga oshganligi munosabati bilan davlat savdosi butunlay xususiylashtirilib, uning umumiy tovar aylanishdagi hissasi 1 % gacha miqdorga qisqartirildi. huddi shunday kooperativ savdo ham xususiylashtirildi, uni hissasi 9 % atrofida. Kolxoz bozori butunlay barham topdi, uni o'rniga dehqon bozorlari takomillashdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, korxonalar va real iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun kerak resurs bazasi yaratildi. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga erishildi. Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash, Surxon vohasining mustaqillik yillarida ko'plab tashqi aloqalari sanoat va madaniyat sohalari, Xususan, keyingi vaqtlarda Qozog'iston va Qirg'iziston kabi qo'shni davlatlar bilan JSTda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.

Muhokama:

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat tomondan yangi bosqichga ko'tarildi.

Iqtisodiyotning real sektori va moliya bozoridagi uzilishlar sababli korxonalarga investitsiya mablag'larini jalb qilish uchun moliya bozorining zamonaviy vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Uy xo'jaliklarining moliya bozoriga kirib borishi yordamida ularning korporativ qimmatli qog'ozlar bozoridagi salmog'ini oshirish masalasi yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oxirgi vaqtlarda O'zbekiston moliya bozorida qator muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi, shuningdek 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga mos, fond bozori aylanmasini joriy etish yordamida iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni 200 million AQSH dollaridan 7 milliard dollargacha oshirish va davlat ulushi bo'lgan tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini tugatish, 2026-yil oxiriga qadar bank tizimi aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizga yetkazish nazarda tutilmoqda.

References:

1. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022.
2. Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. Toshkent, «O'qituvchi», 2006.
3. Pardayev M., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. I-II qism. Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2001.
4. Egamberdiyev E., Xo'jaqulov X. Kichik biznes va tadbirkorlik. Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
5. Abdulkarimov B.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes – rejaning mohiyati. Ma'ruza matni, Samarqand. 2000.